



XORIJIY INVESTITSİYALAR ASOSIDA SHAKLLANAYOTGAN SANOAT KLASTERLARINING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA INTEGRATSION TA'SIRI

Otaxonov Tolibjon

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi,

Butayev Javlonbek

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta
o'qituvchisi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada xorijiy investitsiyalar asosida shakllanayotgan sanoat klasterlarining O'zbekiston iqtisodiyotiga ko'rsatayotgan ta'siri tahlil qilingan. Klaster modeli va xorijiy kapital o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik izohlanadi hamda ularning iqtisodiy integratsiyadagi o'rni yoritiladi. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan ayrim klasterlar misolida xorijiy investitsiyalarning ishlab chiqarish, texnologik yangilanish va eksport salohiyatini oshirishdagi roli ko'rsatib o'tilgan. Shu bilan birga, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ham ilgari surilgan. Maqola ilmiy-tahliliy yondashuvga asoslangan bo'lib, O'zbekistonning sanoat tarmoqlari rivojida klasterlashuv jarayonining dolzarbligini ochib beradi.

Kalit so'zlar:

Xorijiy investitsiyalar, sanoat klasteri, iqtisodiy integratsiya, ishlab chiqarish, eksport, texnologik rivojlanish, klaster modeli, iqtisodiy o'sish.

Kirish. O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida xorijiy investitsiyalar muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda mamlakatda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan bir qator yangiliklar va qonuniy o'zgarishlar amalga oshirildi. To'qimachilik sanoati, agrosanoat, xizmatlar sektori kabi sohalarga kirayotgan investitsiyalar nafaqat ishlab chiqarish hajmlarini oshirishga, balki xalqaro bozorlarga kirish imkoniyatlarini kengaytirishga ham yordam bermoqda. O'zbekiston hukumati xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish va mavjud infratuzilmani mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni qo'llab-quvvatlamogda.


Xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish uchun qabul qilingan bir qator qonunlar, qarorlar va dasturlar mavjud. Jumladan, 2020-yilda qabul qilingan "Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga doir davlat dasturi"¹ investitsiyalarni o'z vaqtida va samarali ravishda jalb qilishga qaratilgan. Ushbu dastur asosida, xorijiy investorlar uchun soliq imtiyozlari, bojxona solig'idan ozod etish va boshqa bir qator huquqiy imtiyozlar taqdim etildi. 2021-yilda esa, yangi "Xorijiy investitsiyalarni muhofaza

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-apreldagi "Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga doir davlat dasturi" to'g'risidagi qarori.

qilish va rag'batlantirish"² to'g'risidagi qonun qabul qilindi. Bu qonun xorijiy investorlar uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratib, ularning mamlakatga investitsiyalar kiritish istagini oshirishga qaratilgan.

Bundan tashqari, 2024-yil davomida O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi yangi qator qarorlar ham qabul qilindi. Bularning orasida "O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotini rivojlantirishga doir yangi chora-tadbirlar"³ to'g'risidagi Prezident qarori va "Investitsiyalarni himoya qilish va rivojlantirish" bo'yicha yangi strategiyalar mavjud. Ushbu qarorlar va qonunlar xorijiy investitsiyalarning samarali faoliyat yuritishini ta'minlash va xalqaro iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish maqsadida muhim o'rin tutmoqda.

Tahlil va Natijalar. O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy rivojlanishida xorijiy investitsiyalar katta o'rin tutmoqda. Ushbu bo'limda xorijiy investitsiyalarning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri, sanoat klasterlarining rivojlanishi va ularning iqtisodiy samaradorligi bo'yicha tahlil qilishni maqsad qilamiz. Xususan, xorijiy investitsiyalarni jalb etgan sohalarda ijobiy o'zgarishlar va ularning iqtisodiy o'sishga ta'siri haqida batafsil ma'lumotlar keltiramiz. Xorijiy investitsiyalar O'zbekistonga 2024-yilga kelib 33,8 milliard AQSh dollari miqdorida kiritilgan. Bu ko'rsatkich, avvalgi yilga nisbatan sezilarli darajada o'sdi. Quyidagi grafik orqali esa O'zbekistondagi xorijiy investitsiyalarishtirokidagi korxonalarining salmog'i yildan-yilga ortganini ko'rishimiz mumkin.



1-grafik. 2019–2023 yillarda O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni⁴.

Yuqoridagi grafikdan ko'rinib turibdiki, 2019-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni barqaror

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-iyundagi "Xorijiy investitsiyalarni muhofaza qilish va rag'batlantirish" to'g'risidagi qonun.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-martdagi "O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotini rivojlantirishga doir yangi chora-tadbirlar" to'g'risidagi qarori.

⁴ NVEXI Investitsiya Konsalting Boshqaruv Kompaniyasi, 2023-yil 1-avgust holatiga ko'ra.

o'sib borgan. Agar 2019-yilda bu ko'rsatkich 9 642 ta bo'lgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 17 659 taga yetgan. Bu esa 5 yil ichida 83% ga o'sishni anglatadi.

Bunday o'sish mamlakatda xorijiy investitsiyalar uchun yaratilgan qulay muhit, qonunchilikdagi islohotlar va iqtisodiy barqarorlik bilan bog'liq. Xususan, 2020-yilda qabul qilingan "Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga doir davlat dasturi" va 2021-yildagi "Xorijiy investitsiyalarni muhofaza qilish va rag'batlantirish" to'g'risidagi qonunlar xorijiy investorlar uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratdi. Shuningdek, 2023-yilda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining 17 659 taga yetishi, O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish va investitsiya muhitini yaxshilash borasidagi sa'y-harakatlarining samaradorligini ko'rsatadi.

Investitsiyalar asosan ishlab chiqarish, xizmatlar sektori va agrosanoatga yo'naltirilgan. Xorijiy kapitalning o'sishi bilan birga, bu sohalarida samaradorlikning oshishi ham kuzatildi. Masalan, to'qimachilik sanoatida xorijiy investitsiyalar, yangi texnologiyalarni joriy etish va eksport hajmini oshirish orqali sezilarli o'sishga erishildi. 2024-yilda to'qimachilik mahsulotlarining eksporti 3,2 milliard AQSh dollarini tashkil etdi.

Sanoat klasterlarining tashkil etilishi, ayniqsa, texnologik modernizatsiya, ish o'rinlari yaratish va eksport salohiyatini oshirishda katta rol o'ynayapti. To'qimachilik klasterlari orqali yangi ishlab chiqarish liniyalari tashkil etilib, mahsulotlar sifatining oshishi natijasida yangi eksport bozorlariga kirish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, farmatsevtika sanoatida ham xorijiy investitsiyalarning ahamiyati katta. Masalan, Andijon viloyatida tashkil etilgan "Andijon-Pharm" farmatsevtika klasteri 2024-yilda 15 million dozali dori vositalarini ishlab chiqarishni boshladi. Bu kabi investitsiyalar nafaqat yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, balki mamlakatdagi dori vositalari ehtiyojini qondirishga ham yordam beradi.

Kimyo sanoatida ham xorijiy investitsiyalar muhim rol o'ynayapti. 2024-yilda kimyo sanoati eksporti 1,1 milliard AQSh dollari miqdoriga yetdi, bu esa 2023-yilga nisbatan 8% ga oshgan. Bu o'sish, ayniqsa, yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish, shuningdek, xorijiy sheriklar bilan bo'lgan hamkorlikning oshishi bilan bog'liq.

Hududiy rivojlanishda ham xorijiy investitsiyalar muhim o'rin tutmoqda. Toshkent viloyatidagi "Angren sanoat uchburchagi" dasturi, masalan, 2024-yilda 25 ming yangi ish o'ri yaratdi. Bu loyihaning muvaffaqiyati O'zbekistonda hududiy rivojlanishni rag'batlantirish, shuningdek, yangi ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy o'sish uchun muhim ahamiyatga ega.

Sektor	Xorijiy investitsiyalar hajmi (mln AQSh dollari)	O'sish (%)
Ishlab chiqarish sanoati	12,460	+8.5
Xizmatlar sektori	9,315	+12.3
Agrosanoat	6,895	+10.0
Tog'-kon sanoati	5,730	+5.0

1-Jadval. 2024-yilda O'zbekistonga kiritilgan xorijiy investitsiyalar hajmi⁵

Yuqoridagi jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 1-sektor Ishlab chiqarish sanoatidan boshlaymiz. Ishlab chiqarish sanoati O'zbekistonga kiritilgan xorijiy investitsiyalarning eng katta ulushini tashkil etadi, ya'ni 2024-yilda ushbu soha 12,460 million AQSh dollarini jalb qilgan. Bu ko'rsatkich sanoatning mamlakat iqtisodiyoti uchun muhimligini tasdiqlaydi. O'sish sur'ati 8.5% ni tashkil etgan bo'lib, bu sanoatning tobora rivojlanayotganini va yangi investitsiyalarni jalb qilishdagi muvaffaqiyatni ko'rsatadi. Yangi texnologiyalar, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va eksport salohiyatini oshirish orqali bu soha o'sishni davom ettirmoqda.

Xizmatlar sektori ham xorijiy investitsiyalarni katta miqdorda jalb qilgan. 2024-yilda xizmatlar sektori 9,315 million AQSh dollarini jalb qildi, bu esa 12.3% lik o'sishni anglatadi. Bu o'sish, ayniqsa, IT, telekommunikatsiya, turizm va moliya xizmatlari kabi sohalarda yangi investitsiyalarni o'z ichiga oladi. Xizmatlar sektorining o'sish sur'ati ishlab chiqarish sanoatidan yuqori bo'lishi, ushbu sohaning xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini oshirishga yordam bermoqda. Xususiy sektorning rivojlanishi va yangi texnologiyalarni joriy etish orqali xizmatlar sektori iqtisodiyotning muhim qismi sifatida o'sishga erishmoqda.

Agrosanoat sektori ham xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muvaffaqiyatli bo'ldi deb ayta olamiz chunki, 2024-yilda ushbu sektor 6,895 million AQSh dollari miqdorida investitsiyalarni jalb etdi, o'sish sur'ati esa 10% ni tashkil etdi. Agrosanoatning rivojlanishi mamlakatda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilishni kengaytirish imkonini yaratdi. Bu sektorning o'sishi, ayniqsa, qishloq xo'jaligi va agrar texnologiyalarni joriy etish orqali amalga oshdi. Xorijiy investitsiyalar, shuningdek, agrosanoatni sanoatlashgan darajaga olib chiqish va eksportni oshirishga yordam berdi.

Tog'-kon sanoati xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda 2024-yilda 5,730 million AQSh dollari miqdorida o'sishga erishdi. Bu sektorning o'sish sur'ati 5% ni tashkil etdi, bu nisbatan past bo'lishi mumkin, ammo tog'-kon sanoati uchun bu ham yaxshi ko'rsatkich hisoblanadi. O'zbekistonning tog'-kon resurslari, xususan, oltin va mis kabi resurslarining boyligi ushbu sektorga investitsiya jalb qilishga yordam bermoqda. Biroq, o'sish sur'atining pastligi, ehtimol, ba'zi infratuzilma va ekologik muammolar bilan bog'liqdir.

Tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, 2024-yilda O'zbekistonga kiritilgan xorijiy investitsiyalarning taqsimoti har bir sektor uchun farq qiladi. Eng katta ulush ishlab chiqarish sanoatiga tegishli bo'lib, bu sohada investitsiyalarning o'sishi va yangi texnologiyalarni joriy etish orqali ijobiy natijalar kuzatilmoqda. Xizmatlar sektori va agrosanoat ham sezilarli darajada rivojlanib, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muhim o'rin tutmoqda. Tog'-kon sanoati, xususan, oltin va boshqa tabiiy resurslarni qazib olish orqali o'z o'sishini davom ettirmoqda, ammo bu sektorning o'sish sur'ati nisbatan pastroq bo'lgan. Bunda, davlatning har bir sektorni yanada rivojlantirish uchun qarorlar qabul qilishi, investitsiya muhiti va infratuzilmasini yaxshilash zarur.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumoti asosida muallif ishlanmasi.

Xulosa va Takliflar. O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishiga xorijiy investitsiyalarning katta ta'siri bor. So'nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilgan islohotlar, xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va yangi qonunlar qabul qilish, investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda sezilarli o'sish kuzatilmoqda. Ayniqsa, to'qimachilik, agrosanoat va xizmatlar sektorlari kabi sohalarida xorijiy investitsiyalarning o'sishi mamlakatning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga yordam bermoqda.

Biroq, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonida ba'zi muammolar ham mavjud. Birinchi navbatda, ayrim sohalarida yuqori raqobat, infratuzilma rivojlanishining yetarli darajada bo'lmashligi va soliq tizimidagi ba'zi kamchiliklar xorijiy investorlar uchun to'sqinliklar yaratmoqda. Bundan tashqari, investitsiyalarning tahlili va monitoringi bo'yicha yaxshilanishlar talab etiladi. Shu sababli, hukumat tomonidan amalga oshirilgan yangiliklar va qonuniy islohotlarning amalda qanday samaralar berishini muntazam ravishda kuzatib borish zarur, shuningdek quyidagi takliflar keltirib o'tilgan;

1. **Soliq tizimini takomillashtirish:** Soliq tizimini yanada soddalashtirish va investorlar uchun yanada ko'proq imtiyozlar yaratish lozim. Ayniqsa, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, xorijiy investitsiyalarning kichik sektorlarga kirishini osonlashtiradi. Shuningdek, soliq stavkalarini yanada barqarorlashtirish, uzoq muddatli investitsiyalar uchun barqaror shart-sharoitlar yaratish zarur.

2. **Infratuzilmani rivojlantirish:** Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun yaxshi infratuzilma, jumladan, transport va kommunikatsiya tizimlarini takomillashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini yanada samarali qilish uchun zarurdir. Yangi texnologiyalarni joriy etish va eksportni rivojlantirish uchun zamonaviy logistika va texnologik infratuzilma talab etiladi.

3. **Investitsiya monitoringi va tahlilini kuchaytirish:** Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdan keyingi bosqichda investitsiyalarning samaradorligini va ta'sirini tahlil qilish, monitoring qilish tizimini takomillashtirish zarur. Bu orqali investitsiya jarayonining har bir bosqichi, ayniqsa, ishlab chiqarish va xizmatlar sektorlaridagi o'zgarishlar muntazam ravishda baholanishi va kerakli o'zgarishlar amalga oshirilishi mumkin.

4. **Yangi bozorlarga chiqish:** O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirish uchun yangi bozorlar ochish zarur. Xorijiy investorlarga yangi eksport bozorlarini topish, mahsulotni diversifikatsiya qilish va xalqaro talabga mos ravishda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha yordam berish kerak. Shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilishda innovatsion texnologiyalarni kengroq joriy etish muhimdir.

5. **Xalqaro hamkorlikni kengaytirish:** O'zbekiston xalqaro iqtisodiy hamkorlikni kengaytirib, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda davom etishi lozim. Turkiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar bilan hamkorlikni yanada mustahkamlash, tajriba almashish va ilmiy-texnikaviy yordamni kengaytirish investitsiyalarni oshirishga xizmat qilishi mumkin.

O'zbekistonning xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga bo'lgan yondashuvi samarali bo'lishi uchun soliq tizimi, infratuzilma, va monitoring tizimlarining

takomillashtirilishi kerak. Yangi qonunlar va qarorlar, ayniqsa, to'qimachilik, agrosanoat, xizmatlar kabi sohalarda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Kelgusida investitsiya muhitini yanada yaxshilash, yangi bozorlarga kirish va iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash orqali O'zbekiston iqtisodiy barqarorligini oshirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-apreldagi "Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga doir davlat dasturi" to'g'risidagi qarori. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2020-yil 12-aprel.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-iyundagi "Xorijiy investitsiyalarni muhofaza qilish va rag'batlantirish" to'g'risidagi qonun. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qonuni, 2021-yil 15-iyun.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-martdagi "O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotini rivojlantirishga doir yangi chora-tadbirlar" to'g'risidagi qarori. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2024-yil 5-mart.
4. Xorijiy investitsiyalar va mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, 2024.
5. **O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishiga xorijiy investitsiyalarning ta'siri.** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2024.
6. UzDaily.uz – O'zbekiston iqtisodiy yangiliklari. www.uzdaily.uz
7. Stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. www.stat.uz
8. Invest.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalarni rivojlantirish agentligi. www.invest.gov.uz